

TARJIMA JARAYONIDA LINGVOKULTUROLOGIK SO'ZLARNING
MA'NO O'ZGARISHLARI.

Assistant teacher of Asia International University

Department of "History and Filology"

Tursunova Marxabo Raxmonovna

Student of Asia International University

Sodiqova Shahrinoz Turg'unovna

Annotatsiya. Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o'rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so'z boyligi talab qilinadi. Ushbu maqolada tarjima jarayonida lingvokulturologik xususiyatlarga e'tibor qaratishni lozim topdik. Tarjima asarlarda lingvokulturologik jihatlar muayyan xalqning tarixi, yashash tarzi, qadriyatlari, urfodatlari orqali yoritib berilishi haqida fikr yuritiladi. O'zbek kitobxonlarining sevimli adiblaridan biri O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari ingliz tili tarjimasidagi ba'zi parchalar misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, lingvokulturologiya, tarjima asarlar, lingvokulturologik xususiyatlar.

Annotation. One of the most difficult problems in the translation of literary texts is to convey to the reader the differences in the cultures of people. In the process of translation, a translator needs great skill and vocabulary in order to convey the characteristics of one people in another language. In this article, we considered it necessary to pay attention to the linguistic and cultural features of the translation process. In translated works, it is believed that linguistic and cultural aspects are covered through the history, lifestyle, values and customs of a particular people. As an example, some excerpts from the English translation of the work of Utkir Khashimov, one of the favorite writers of Uzbek readers, are given.

Keywords: literary translation, linguoculturology, translated works, linguocultural features.

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda turli millatlarning bir-biri bilan muloqotga va o'zaro ma'lumotlar almashishga talab kuchaydi. Boshqa xalqlarning hayot tarzini o'rganish, ularning madaniyatiga nigoh qaratishning

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

eng asosiy va muhim yo'llaridan biri bu adabiyot hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, badiiy tarjimalar bu ikki millat o'rtasidagi ko'prikdir. Badiiy asarlar tarjimasi murakkab va shu bilan birgalikda qiziqarli jarayon sanaladi, chunki bunda tarjimondan shu xalqning milliyligini, madaniyatini til orqali yetkazib berish vazifasi qo'yiladi.

Badiiy tarjimalar milliy adabiyotni yaratish, aynan ma'lum bir xalqning hayot tarzi, madaniyati, urf odatlari haqida ma'lumot berish vazifalari bilan muhim sanaladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, muayyan xalqning milliyligi shu millat tarixi, hayot tarzi, an'analari, va eng muhimi madaniyatida o'z aksini topadi. Shu sababli badiiy asarlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida lingvokulturologik sifatlarga alohida e'tibor qaratish o'rinli hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada badiiy asarlar tarjima jarayonida lingvokulturologik jihatlarni chuqur o'rganish va shu asosida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari talqinida fikr yuritiladi.

Tilshunoslikda badiiy asarlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari haqida turli xil yondashuvlar mavjud. Amerikalik olim E.Naydaning fikrlariga ko'ra "madaniyatlararo farqlar tillar tuzilishidagi farqlardan ko'ra ancha murakkabroq sanaladi". Shu fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tarjimon tarjima qilinayotgan asar tilini mukammal bilsada, o'sha xalq madaniyatini tarjima orqali yetkazishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. "Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liqligi va til aloqa almashinuvida juda muhim omillardan biri ekanligi sababli, tarjima ham madaniyat, bilim va fikrlar almashuvida muhim omil sanaladi" deydi Darvish Ali.

Yuqorida berilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, tarjima jarayoni bu madaniyat almashish jarayonidir va bu orqali ma'lum bir millatning hayot tarziga doir axborotlar ham almashinadi. Hozirgi ilm-fan rivojlanayotgan bir davrda barcha millat tarjimonlariga noyob tarjima asarlari yaratishning barcha imkoniyatlari mavjuddir. Onlayn tarjima mashinalari, lug'atlar, darsliklar bunga qo'l keladi. Lekin yaratilgan qulayliklarga qaramasdan ba'zan madaniy so'zlar yoki iboralarning tarjimada mos keladigan, ushbu so'zni to'liq yoritib beradigan ekvivalentini topish qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Bir millatning o'ziga xos so'z birliklari boshqa millat nutqida uchramasligi bunga asosiy sabab qilib ko'rsatilmoqda. Shu sababli tarjimalardan tarjima jarayonida lingvokulturologik jihatlarga diqqat qaratish katta mahorat talab qiladi. Lingvokulturologiya rivojini ikki davrga bo'lish mumkin: birinchisi bu sohaga qo'yilgan ilk qadamlar bo'lsa, ikkinchi davr lingvokulturologiyaning

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

rivojlanishini tadqiqotlarning alohida sohasi sifatida tan olinishidir. Tarjimashunoslikda lingvokulturologik jihatlar deganda nafaqat lug'at yoki tilning grammatik tuzilishi, balki o'sha millatning tarixi, mahalliy va milliy qadriyatlari, urf odat va yashash tarzini ham kitobxonga ko'rsatib berish tushuniladi. Shu sababli tarjimashunos olimlar tarjimada lingvokulturologik jihatlar haqida so'z borganda uni til va madaniyat o'rtasidagi ko'priikka o'xshatishadi. Ular o'zaro chambarchas bog'liq, birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilish mumkin emas.

Bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilgan holda adabiyotimizning sevimli namoyondalaridan biri O'tkir Hoshimovning o'zbek kitobxonlari javonidan munosib o'rin olgan "Dunyoning ishlari" qissasi haqida so'z yuritsak. Asar dunyoning bir qancha tillariga, jumladan ingliz, turk, xitoy tillariga tarjima qilingan. Ushbu asar chuqur o'zbekona milliylik singdirilgan asar hisoblanadi. "Dunyoning ishlari" asari Obidxon Mo'minov tomonidan 2013- yilda ingliz tiliga tarjima qilingan. Diqqatimizni qissada berilgan "Tasalli" novellasi tarjimasining ba'zi jihatlarga e'tibor qaratsak.

O'zbek tilida: "Ehtimol, shunday hamdir. Balki, odamlarning dardiga sherik bo'laverib ko'nikib ketgan bu nuroniy qariya kerakli paytda har kimga ana shunday tasalli so'zini aytar. Rahmat sizga, otaxon. Ertami-kechmi har kimning ishi tushadigan mana shu qo'llaringiz uchun rahmat. O'rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard qalbingiz uchun rahmat. Faqat... Hamma gap yomg'irda bo'lsa, yana aqalli uch kungina onamning umri cho'zilsa-yu, keyin yomg'ir emas, muttasil tosh yog'sa ham rozi edim..."

Parchada qahramonning onasi vafotidan keyin qabristonga borgan va ichki kechinmalari tasvirlangan. O'sha yerda ishlaydigan go'rkov amakining tasalli so'zlari juda ham chiroyli ifodalangan. Qahramon ham bu dardkash insonga minnatdorchilik bildirgan holda o'z nutqida unga "RAHMAT SIZGA, OTAXON" deb murojaat qiladi.

Endi maha shu yuqorida berilgan parchaning ingliz tilidagi tarjimasiga to'xtalsak. Ingliz tilida: "Maybe it is so. Probably this old man, who got accustomed being accompanier with sickness of people, is used to consoling people in urgent time. Thank you, father. Thank you for your hands which everyone will need one day. Thank you for your consolation. But only... If everything depended on the rain, If only my mother's life extended for three more days then I'd agree if even it poured stone instead of the rain..."

Berilgan parcha ingliz tilida adib ichki kechinmalarini ifodalagan. Biz e'tiborimizni qaratgan "Rahmat sizga, otaxon" fikrlari "Thank you, father" shaklida kitobxonga yetkazilgan, ingliz tili lug'atida OTAXON so'zining mos

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

tarjimasini topilmaganligi, ularning madaniyati va qadriyatida bu kabi so'zlar uchramasligi sababli FATHER deb tarjima qilingan. Biroq OTAXON so'zi orqali ifodalangan hurmat ko'rsatish ohangini FATHER so'zi bilan ifodalashning imkoni yo'q. Shunday bo'lsa-da, tarjimon unga mos keladigan ekvivalentdan foydalangan. Biz bu orqali o'zbek millati, mentaliteti, qadriyatlari ifodalangan jumlar boshqa tillarga to'laqonli tarjima qilinmasligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Umuman olganda, lingvokulturologik so'zlarni tahlil qilish va boshqa tillardagi ekvivalenti bilan solishtirish asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zero, har bir iborada ma'lum bir millat suvrati chiziladi. Badiiy asarlarda esa, u qaysi xalqqa tegishli bo'lmasin, milliy xalq xarakteri, ma'naviyatini ochib beruvchi ekvivalenti anchagina bo'lib, ulardan foydalanish ham yozuvchining mahoratini, ham qahramonga xos xususiyatlarni to'laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

REFERENCE

1. Darwish Ali. A Journalist Guide To Live Direct And Unbiased News Translation, 2010, Melbourne. 59 pages.
2. Nida, Eugene and Charles R. Taber. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1982.
3. O'tkir Hoshimov Dunyoning ishlari -Toshkent,2005.-210 p. 6. Obidxon Mo'minov Affairs of life, -Tashkent,2013. -164 p.
4. arimov , . R. , & Tursunova, M. . (2024). THE PROBLEM OF ORIGINALITY IN THE ANALYSIS OF PARALLEL CORPUS PRISM. *Молодые ученые*, 2(2), 51–54. извлечено от <https://www.in->
5. Tursunova , M. (2024). THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 3(1), 196–199. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27934>
6. Raxmonovna, T. M. (2023). Benefits of Teaching Foreign Languages to Young Learners. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 603–606. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2195>
7. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Translation as a Bridge Across Cultures. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 463–466. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2137>

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

8. Tursunova, M. (2023). THE IMPORTANCE OF POSITIVE ATMOSPHERE IN ENGLISH CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(12), 713–716. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27179>

9. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). USING EFFECTIVE METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH GRAMMAR. *IMRAS*, 6(7), 183–189. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/479>

10. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Parallel Korpus Prizmasi Tahlilida Tarjima Asarlarda Asliyat Muammosi Tadqiqi . *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 311–317. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1505>

11. Tursunova, M. (2023). USING INDUCTIVE AND DEDUCTIVE APPROACH IN TEACHING GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(10), 11-17.

12. Tursunova, M. (2023). ROLE OF THE 4C METHOD IN LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation in the education system*, 2(11), 75-83.

13. Tursunova, M. R., & Karimov, R. A. (2023). PARALLEL KORPUSDA BADIY ASARALARNING ASLIYAT TARJIMASI TADQIQI.(O'. HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARI ASOSIDA).

14. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). THE 4C METHOD IS AN EFFECTIVE WAY IN LANGUAGE TEACHING. [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10033473>

15. Tursunova, M. (2023). BADIY TARJIMA ASARLARDA ASLIYAT MUAMMOSI TADQIQI. *Interpretation and researches*, 1(8).

16. Tursunova, M. (2023). BADIY TARJIMADA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLAR. *Журнал: Союз Науки и Образования*, 5(2), 12-15.

17. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Adabiyotshunoslikda Obraz Va Ramz Tushunchalari. *Open Academia: Journal of Scholarly Research*, 1(3), 24–27. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/94>

Berdiyeva Sitora Utkerovna. (2024). "SHUM BOLA" ASARINING TARJIMASIDA MILLIY YUMORISTIK XUSUSIYATLAR. МЕДИЦИНА,

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 420–430.

19. Safarova, Z. (2024). G 'AFUR G 'ULOMNING "SHUM BOLA"
ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA MILLIYLIKNING
IFODALANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 45(45).

20. Berdiyeva, S. (2023). A STORY-BASED APPROACH IN

T

E 21.

B 22. Berdiyeva, S. (2024). TEACHING YOUNG LEARNERS

T

H 23. Berdiyeva, S. (2023). UNLOCKING LANGUAGE LEARNING

P.

O 24. Safarova, Z. T., & Berdiyeva, S. U. (2024). TRANSLATION

PROBLEMS OF THE STORY "NAUGHTY BOY". *Modern Scientific*

Э

N 25. Khalilova, K. (2023). ACADEMIC VOCABULARY: HOW TO

TEACH AND STUDY IT. *Modern Science and Research*, 2(9), 79-83.

Г 26. Khalilova, K. (2023). MASTERING READING

COMPREHENSION: A VITAL SKILL FOR ACADEMIC SUCCESS.

Академические исследования в современной науке, 2(23), 83-89.

А

У

T

H

E

O

F

M

P.

A

S

T.

P

O

F

T.

M

U

L

T

I

I